ISNN 3030-3907

2026/3
VOLUME 2

DEVELOPMENT OF SCIENCE

ILMIY JURNAL



Development of science

Ilmiy jurnal

2026/3 VOLUME 2

ISSN 3030 -3907

Ilmiy jurnal OAK rayosatining 2024 yil 27 sentabrdagi 361-son qaroriga asosan 02.00.00 kimyo fanlari hamda 2025 yil 12 fevral 367- son qaroriga asosan 05.00.00 texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

BOSH MUHARRIR:
Temirov Alisher Hoshim o‘g‘li – texnika fanlari falsafa doktori (PhD),Dotsent.
TAHRIRIYAT KENGASH RAISI:
Fozilov Sadriddin Fayzullayevich – texnika fanlari doktori, professor
TAHRIRIYAT KENGASH A’ZOLARI

TEXNIKA FANLARI/ TECHNICAL SCIENCES/ ТЕХНИЧЕСКИЕ НАУКИ

Bozorov G‘ayrat Rashidovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Abdurahmonov Olim Rustamovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Adizov Bobur Zamirovich
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Umumiy va noorganik kimyo instituti, professor
Hayitov Ruslan Rustamjonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Jumayev Qayum Karimovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Berdiyev Dorob Murodovich
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti, professor
Maxmudov Rafiq Amonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Tilloyev Lochin Ismatilloyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Raxmonov Qahramon Sanakulovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Barakayev Nusratullo Rajabovich
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti, professor.
Jo‘rayev Xayrullo Fayziyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Panoyev Erali Rajabboyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Ataullayev Sherzod Nabiullyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Murodov Malik Negmurodovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Axmedova Ozoda Bahronovna
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti.
Safarov Bahri Jumayevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Xaydarov Axtam Amonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Safarov Jasur Alijon o‘g‘li
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Асадова Раъно Дилмуратовна
Тошкент Давлат техника университети доценти

KIMYO FANLARI/ CHEMICAL SCIENCES/ ХИМИЧЕСКИЕ НАУКИ

Axmedov Voxid Nizomovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Umarov Baqo Bafoyevich
Buxoro Davlat Universiteti, professor
Kodirov Abduaxad Abduraximovich
Qarshi davlat Universiteti, professor
Qurbonov Mingniqul Jumagulovich
Qarshi davlat Universiteti, dotsent
Turemuratov Sharibay Naurizbaevich
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Bosh ilmiy kotibi, professor
Tursunov Kaxor Shonazarovich
Qarshi davlat Universiteti, professor
Do‘stov Hamro
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Panoyev Nodir Shavkatovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Olimov Bobur Bahodir o‘g‘li
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Kasimov Sherzod Abduazimovich
Termiz Davlat Universiteti, professor.
Aliqulov Rustam Valiyevich
Termiz Davlat Universiteti, professor
Tropov Xamza Tursunovich
Samarqand Davlat Universiteti, professor

IQTISODIYOT FANLARI/ ECONOMICS/ ЭКОНОМИЧЕСКИЕ НАУКИ

Nizamov Aslitdin Badreddinovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Boboyev Akmal Choriyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Ergashxojayeva Shaxnoza Djasurovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, professor
Saidaxmedova Nodira Ilxomovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, professor
Muxsinov Bekzod Toxirovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Shakarov Qulmat Ashirovich
Renessans ta'lim universiteti,dotsent.
Jumaeva Zulfiya Qayumovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Norova Salomat Yusupovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Avezova Shaxnoza Maxmudjonovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Jalilov Jamshid G‘anijonovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, dotsent
Xasanova Gulruh Djumanazarovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.

PEDAGOGIKA FANLARI/ PEDAGOGICAL SCIENCES / ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ НАУКИ

Siddiqova Sadoqat G‘afforovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Zoyirov Erkin Xalilovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, DSc, professor
Gaffarov Feruz Hasanovich
Puchon Universiteti, *professor*
Ruziyev Davron Yuldashevich
Buxoro Davlat Universiteti, professor
Muradova Firuza Rashidovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Yunusova Gulandon Samiyevna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
To‘xtayeva Zebo Sharifovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Navro‘zova Gulchixra Nigmatovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Uzoqova Laylo Polvonovna
Buxoro muhandislik – texnologiya instituti, dotsent.
To‘raqulova Marjona Qiyom qizi
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Muradova Zarina Rashidovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Murodov Sanjar Aslonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Shodiyev Jahongir Jo‘raqulovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent
Gaffarov Laziz Hasanovich
Buxoro muhandislik – texnologiya instituti, dotsent.

Tahririyat a’zolarning to‘liq ro‘yxati jurnalning www.devos.uz saytida keltirilgan.

Tahririyat hay’ati a’zolarining tarkibini o‘zgartirish hamda qo‘shimcha kiritish yoki tahririyat a’zoligidan chiqarish bosh muharrir tomonidan amalga oshiriladi.

ISSN 3030-3907

Development of science ilmiy jurnali 2024 yil 15 aprel kuni №256445 sonli guvohnoma bilan Davlat ro‘yxatidan o‘tgan.

To‘plam elektron ko‘rinishda (pdf formatida) mualliflarga taqdim etiladi. To‘plamga kiritiladigan maqolalarning mazmuni, ulardagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlarning to‘g‘riligiga hamda har qanday fikr - mulohazalarga mualliflarning o‘zlari mas’ul hisoblanadilar. Talablarga javob bermaydigan maqolalar to‘plamga kiritilmaydi. Tashkiliy qo‘mita maqola matnini qisqartirish, qisman tuzatish kiritish, seksiyalarga joylashtirish huquqiga ega.

ISSN 3030-3907

SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI VA KUTUBXONACHILAR PROFESSIONAL KOMPETENSIYALARINING NAZARIY ASOSLARI: WEB OF SCIENCE BAZASI ASOSIDA ANALITIK TAHLIL

Mamadaliyeva Sadoqat Botir qizi

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada sun'iy intellekt texnologiyalarining kutubxona faoliyatiga ta'siri hamda kutubxonachilar professional kompetensiyalarining nazariy asoslari tahlil qilinadi. Raqamli transformatsiya sharoitida kutubxonachilar uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar yoritiladi. Sun'iy intellektdan foydalanish kutubxona xizmatlari samaradorligini oshirish va axborot xizmatlarini rivojlantirishda muhim omil sifatida baholanadi. Zamonaviy kutubxonalar faoliyatida innovatsion texnologiyalarni qo'llash ahamiyati ham ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, ishonchli AI, web of science, analitik tahlil, kompetensiya

Аннотация. В данной статье анализируется влияние технологий искусственного интеллекта на деятельность библиотек, а также рассматриваются теоретические основы профессиональных компетенций библиотекарей. Освещаются знания, навыки и умения, необходимые библиотекарям в условиях цифровой трансформации. Использование искусственного интеллекта оценивается как важный фактор повышения эффективности библиотечных услуг и развития информационного обслуживания. Также рассматривается значение применения инновационных технологий в деятельности современных библиотек.

Ключевые слова: искусственный интеллект, надежный AI, web of science, аналитический анализ, компетенция, цифровая трансформация, библиотечное дело

Abstract: The article analyzes the impact of artificial intelligence technologies on library activities and professional competencies of librarians based on the Web of Science database. Scientific publications from 2022–2026 were examined using bibliometric methods, revealing an increasing research activity in this field. The study also analyzes algorithmic literacy, digital competencies, and the prospects of applying artificial intelligence technologies in library services. The results show the necessity of developing new professional competencies for librarians.

Keywords: artificial intelligence, trustworthy AI, Web of Science, analytical analysis, professional competence.

KIRISH

ISSN 3030-3907

Bugungi axborot jamiyatining rivojlanish bosqichi ma’lumotlar hajmining o’sishi va unga bo’lgan talabni ortishi bilan tavsiflanadi. Ushbu nuqtayi nazardan kelib chiqib, endilikda kutubxonalar jismoniy ommaviy axborot vositalarining faqatgina saqlash maskani sifatidagi an’anaviy funksiyasidan voz kechib, ular raqamli axborot makonida faol subyekt sifatida namoyon bo‘lib, ishonchlilik “maskani” funksiyasini bajaradi. Ya’ni, tobora kengayib borayotgan axborot shovqini sharoitida kutubxonalar verifikatsiyadan o‘tgan, ishonchli va ilmiy asoslangan ma’lumotlarni saralash, tizimlashtirish hamda foydalanuvchilarga yetkazish orqali axborot barqarorligini ta’minlaydi. Kutubxonalar o‘z foydalanuvchilariga adolatli, shaffof va axloqiy xizmat ko‘rsatish majburiyatini zimmasiga oladi. Shu nuqtayi nazardan, sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etishda ham ushbu tamoyillarga mos keluvchi yondashuvlarni qo‘llash muhim hisoblanadi. Tadqiqotlar kutubxona faoliyatida sun’iy intellektdan axloqiy va adolatli foydalanish mexanizmlarini, foydalanuvchilarning axborot olish imkoniyatlarini kengaytirish istiqbollarini hamda kutubxonachilarning professional kompetensiyalarini rivojlantirish masalalarini o‘rganishga qaratilgan.

Kelgusidagi tadqiqotlar sun’iy intellektning ishonchli ishlashini ta’minlovchi “ishonchli AI”, algoritmik adolat tamoyillari, tushunarli sun’iy intellekt modellari hamda “inson–algoritm hamkorligi” (human-in-the-loop) yondashuvlari kutubxona tizimlari va boshqa kasbiy sohalarga qanday ta’sir ko‘rsatishini o‘rganishga yo‘naltirilishi mumkin. Mazkur yo‘nalishlar kutubxonachilarning yangi professional kompetensiyalarini shakllantirish va texnologik muhitga moslashuvini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

WEB OF SCIENCE BAZASI ASOSIDA ANALITIK TAHLILI

So‘nggi yillarda sun’iy intellekt (SI) texnologiyalarining jadal rivojlanishi kutubxonachilik faoliyatining mazmuni hamda professional kompetensiyalar tizimiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Web of Science Core Collection ma’lumotlar bazasida “sun’iy intellekt texnologiyalarining nazariy asoslari va kutubxonachilar kasbiy kompetensiyalari” mazmuniga yaqin kalit so‘zlar asosida amalga oshirilgan qidiruv natijalari ushbu yo‘nalishda ilmiy tadqiqotlar faolligining ortib borayotganini ko‘rsatdi. Qidiruv jarayonida 100 ta ilmiy ish aniqlangan bo‘lib, ular asosan 2022–2026 yillar oralig‘ida chop etilgan. Mazkur sohadagi ilmiy izlanishlar 2023-yildan boshlab faollashgan bo‘lib, 2022-yildan e’tiboran kutubxona faoliyatida sun’iy intellekt texnologiyalarini qo‘llash konsepsiyasi kengroq o‘rganila boshlaganini ko‘rsatadi.

Yillar kesimida tahlil natijalari 2024 va 2025-yillarda ilmiy maqolalar sonining sezilarli darajada oshganligini ko‘rsatadi. Xususan, 2024-yilda 33 ta, 2025-yilda esa 32 ta ilmiy nashr chop etilgan. Ushbu ko‘rsatkichlar sun’iy intellekt

ISSN 3030-3907

texnologiyalarining kutubxona amaliyotiga faol joriy etilayotganini va mazkur yo‘nalishning dolzarb ilmiy muammo sifatida shakllanayotganini tasdiqlaydi. Shu jihatdan, tadqiqot mavzusi zamonaviy ilmiy muhokamalarning faol yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

TADQIQOT YO‘NALISHLARI

Mazmuniy jihatdan tadqiqotlar bir nechta asosiy yo‘nalishlarga ajratilgan. Birinchi yo‘nalish algoritmik savodxonlik va sun’iy intellekt kompetensiyalarining nazariy asoslarini o‘rganishga qaratilgan. Ushbu yo‘nalish doirasidagi tadqiqotlar kutubxonachilarning raqamli savodxonlik ko‘nikmalaridan tashqari, algoritmik fikrlash, ma’lumotlarni modellashtirish hamda generativ sun’iy intellekt vositalaridan foydalanish kompetensiyalarini kasbiy mahoratning muhim tarkibiy qismi sifatida talqin etadi. Ayniqsa, katta hajmdagi ma’lumotlar bilan ishlash, semantik tahlil hamda avtomatlashtirilgan tavsiya tizimlarini qo‘llash masalalari data kutubxonachilar faoliyati misolida keng tahlil qilingan. Natijalar kutubxonachining an’anaviy axborot vositachisi rolidan texnologik mediator va ma’lumotlar tahlilchisi funksiyasiga bosqichma-bosqich o‘tayotganini ko‘rsatadi.

Ikkinchi yo‘nalish sun’iy intellekt texnologiyalarining kutubxona xizmatlariga integratsiyalashuvi bilan bog‘liq. Tadqiqotlarda, xususan, universitet kutubxonalari faoliyatida chat-bot tizimlari, avtomatlashtirilgan indeksatsiya, metadata generatsiyasi, aqlli qidiruv tizimlari va tavsiya algoritmlaridan foydalanish imkoniyatlari o‘rganilgan. Olingan natijalar sun’iy intellekt texnologiyalari operatsion jarayonlarni tezlashtirish bilan birga, foydalanuvchilarga individual xizmat ko‘rsatish sifatini ham oshirishga xizmat qilishini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, bunday texnologiyalarni joriy etish kutubxonachilardan yangi turdagi texnologik kompetensiyalarni rivojlantirishni talab qiladi.

Uchinchi yo‘nalish professional kompetensiyalarning transformatsiyasi hamda ta’lim dasturlarini modernizatsiya qilish masalalariga bag‘ishlangan. Empirik tadqiqotlarda so‘rovnoma, kontent tahlil va bibliometrik usullar orqali kutubxonachilarning sun’iy intellekt savodxonligi darajasi baholangan. Natijalarga ko‘ra, raqamli kompetensiya darajasi yuqori bo‘lgan mutaxassislar sun’iy intellekt texnologiyalaridan samarali foydalanadi va xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilashga erishadi. Shu sababli kutubxona-axborot ta’limi (LIS – Library and Information Science) o‘quv dasturlariga sun’iy intellekt asoslari, ma’lumotlar tahlili hamda algoritmik tafakkur elementlarini kiritish zarurati asoslanmoqda.


QO‘LLANILGAN METODLAR

Metodologik jihatdan tadqiqotlar bibliometrik tahlil, tizimli adabiyotlar sharhi, empirik so‘rovlar hamda amaliy tajribalarni o‘rganishga asoslangan. Bu esa

ISSN 3030-3907

mavzuning nazariy va amaliy jihatlari kompleks tarzda tadqiq etilayotganini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, mavjud ilmiy manbalar tahlili bir qator tadqiqot bo‘shliqlarini aniqlash imkonini berdi. Jumladan, sun’iy intellekt kompetensiyalarining yagona universal modeli hali ishlab chiqilmagan. Shuningdek, rivojlanayotgan mamlakatlar kontekstida olib borilgan tadqiqotlar soni yetarli darajada emas. Bundan tashqari, kasbiy etika, huquqiy masalalar hamda kasbiy shakllanish transformatsiyasi jarayonlari chuqur nazariy asoslashni talab etadi. Aksariyat tadqiqotlar texnologik aspektlarga ko‘proq e’tibor qaratgan bo‘lsada, kutubxonachilarning ijtimoiy-madaniy funksiyalari hamda kasbiy maqomidagi o‘zgarishlar yetarli darajada konseptual tahlil qilinmagan.



1-rasm. Web of Science Core Collection bazasida sun’iy intellekt texnologiyalari va kutubxonachilarning professional kompetensiyalari statistikasi

NATIJA. Maqolada sun’iy intellekt texnologiyalarining kutubxonachilik faoliyati va professional kompetensiyalarga ta’siri Web of Science ma’lumotlar bazasi asosida analitik tahlil qilingan. 2022–2026-yillar oralig‘ida chop etilgan ilmiy ishlar bibliometrik usulda o‘rganilib, ushbu yo‘nalishda ilmiy faollikning ortib borishi aniqlangan. Tadqiqotda algoritmik savodxonlik, raqamli

ISSN 3030-3907

kompetensiyalar hamda kutubxona xizmatlarida sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish istiqbollari tahlil qilingan. Natijalar kutubxonachilarning yangi professional kompetensiyalarini rivojlantirish zarurligini ko‘rsatadi.

Web of Science Core Collection bazasida “sun’iy intellekt texnologiyalari va kutubxonachilarning professional kompetensiyalari” mavzusiga yaqin ilmiy nashrlar dinamikasi tahlili so‘nggi yillarda mazkur yo‘nalishga bo‘lgan ilmiy qiziqish sezilarli darajada ortganini ko‘rsatadi. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 2022 yilda ushbu yo‘nalishda 8 ta ilmiy maqola e’lon qilingan bo‘lsa, 2023 yilda bu ko‘rsatkich 9 taga yetgan. Mazkur davr nisbatan barqaror, ammo past intensivlikdagi ilmiy faollik bilan tavsiflanadi.

Biroq 2024 yilda keskin o‘sish kuzatilib, nashrlar soni 33 taga yetgan. Bu esa bir yil ichida deyarli to‘rt barobar o‘sishni anglatadi. 2025 yilda ham yuqori ilmiy faollik saqlanib qolgan bo‘lib, 32 ta maqola chop etilgan. Ushbu davrni sun’iy intellektning kutubxona faoliyatiga integratsiyasi masalasi ilmiy diskursning markaziy mavzularidan biriga aylangan bosqich sifatida baholash mumkin.

2026 yil bo‘yicha 3 ta nashr qayd etilgan bo‘lsa-da, mazkur ko‘rsatkich yilning hali yakunlanmaganligi bilan izohlanadi va to‘liq statistik xulosalar chiqarish uchun yetarli emas.

XULOSA.

Xulosa qilib aytganda, raqamli bilimlar makonida faol axborot vositachisi va ishonchli ma’lumotlar manbai sifatida shakllanib bormoqda. Sun’iy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanishi kutubxona faoliyatining mazmuni, xizmat ko‘rsatish shakllari hamda kutubxonachilarning professional kompetensiyalari tizimiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Web of Science Core Collection bazasi asosida amalga oshirilgan bibliometrik tahlil 2022–2026-yillar oralig‘ida ushbu yo‘nalishda ilmiy tadqiqotlar soni sezilarli darajada ortganini ko‘rsatdi. Ayniqsa, 2024–2025-yillarda ilmiy nashrlar sonining keskin oshishi sun’iy intellekt texnologiyalarining kutubxona-amaliyotiga faol integratsiyalashuvi hamda mazkur yo‘nalishning dolzarb ilmiy tadqiqot sohasi sifatida shakllanayotganini tasdiqlaydi.

Tahlil natijalariga ko‘ra, kutubxonachilarning kasbiy faoliyatida algoritmik savodxonlik, raqamli kompetensiyalar, ma’lumotlarni tahlil qilish, generativ sun’iy intellekt vositalaridan foydalanish kabi yangi ko‘nikmalar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu bilan birga, sun’iy intellekt texnologiyalarini kutubxona xizmatlariga joriy etish avtomatlashtirilgan indeksatsiya, metadata generatsiyasi, aqlli qidiruv tizimlari hamda tavsiya algoritmlari orqali foydalanuvchilarga ko‘rsatilayotgan xizmatlar samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

ISSN 3030-3907

Biroq mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili sun’iy intellekt kompetensiyalarining universal modeli hali to‘liq shakllanmaganini, rivojlanayotgan mamlakatlar kontekstida olib borilgan tadqiqotlar yetarli emasligini ham ko‘rsatdi. Shuningdek, kutubxonachilik faoliyatida sun’iy intellektdan foydalanish bilan bog‘liq axloqiy, huquqiy va kasbiy shakllanish masalalari ham chuqur ilmiy asoslashni talab qiladi.

Shu bois kelgusida kutubxona-axborot faoliyati sohasida sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish jarayonida algoritmik adolat, ishonchli sun’iy intellekt, tushuntiriladigan sun’iy intellekt modellari hamda “inson–algoritm hamkorligi” tamoyillarini hisobga olgan holda ilmiy va amaliy tadqiqotlarni davom ettirish muhim hisoblanadi. Mazkur yo‘nalishlar kutubxonachilarning yangi professional kompetensiyalarini shakllantirish, kutubxona xizmatlarini modernizatsiya qilish hamda axborot makonida ishonchli bilimlar infratuzilmasini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. . Трофимов И.Л, Кустова Е.М. - Роль библиотек в эпоху искусственного интеллекта: аналитический взгляд на новые ИИ-технологии и их применение; Современные технологии. Системный анализ. Моделирование; 2025. № 3 (87).- С. 94–104.

2. Mallikarjun Dora1, Lavji N Zala2 and Manoj Kumar Sa Research on Artificial Intelligence and its Application in Libraries and Librarianship: a Content Analysis May 2025 (PDF) Research on Artificial Intelligence and its Application in Libraries and Librarianship: a Content Analysis

3. Theoretical foundations of artificial intelligence technologies and professional competencies of librarians – 100 – Web of Science Core Collection

4. James Oluwaseyi Hodonu-Wusu; The rise of artificial intelligence in libraries: the ethical and equitable methodologies, and prospects for empowering library users Volume 5, pages 755–765, (2025) The rise of artificial intelligence in libraries: the ethical and equitable methodologies, and prospects for empowering library users | AI and Ethics | Springer Nature Link

5. Искусственный интеллект на службе библиотек : методкейс / ГБУК РК “РКБ им. И. Гаспринского”; сост. Г. С. Шосаидова. – Симферополь, 2025. – 20 с.

ISSN 3030-3907